


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT TIBBIYOT UNIVERSITETI



MEDIASAVODXONLIK VA AXBOROT MADANIYATI
O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500 000 – Tabiiy fanlar
Ta'lif sohasi: 530 000 – Fizika va tabiiy fanlar
Ta'lif yo'nalishi: 60530100 – Kimyo

Fan/Modul kodi MDA1204	O‘quv yili 2025/2026	Semestr 2	ECTS/Kreditlar 5				
Fan/Modul turi Majburiy	Ta’lim tili O‘zbek/ rus		Haftadagi dars soatlari 4				
1.	Fan/Modul nomi	Auditoriya mashg‘ulotlar (soat)	Mustaqil ta’lim (soat)				
	Mediasavodxonlik va axborot madaniyati	60	90				
I. Fanning mazmuni							
<p>Fanni o‘qitishdan maqsad – Mediasavodxonlik va axborot madaniyati modulining maqsadi talabalarga bugungi kundagi zamonaviy axborot makoniga poydevor bo‘lgan, inson ijtimoiy-madaniy hayotining ajralmas qismi hisoblangan muloqot, ma’lumot evolyutsiyasi tarixini o‘rgatish. Chunki, axborot tushunchasi, makon va zamonga xos bo‘lib, u davriy hodisa sifatida turli shakl-shamoyilda namoyon bo‘ladi. Jumladan, sobiq sovetlar davrida axborot taqchilligi yuzaga kelgan bo‘lsa, hozirgi kunda esa jamiyatda axborot oqimi ko‘paygani tufayli, axborotdan “bezish”, uni tahlil qilmay, bor holicha iste’mol qilish jarayoni yuzaga keldi. Global axborot makonida qabul qilinayotgan axborotlarni tushunish, baholash, tanqidiy tafakkurni shakllantirish.</p>							
2.	<p>Fanning vazifasi – Ommaviy axborot vositalari va media makonga xos: “raqamli”, “kompyuter”, “vizual”, “texnologik”, “kommunikatsion”, “media”, “axborot”, “ommaviy madaniyat” va “texnokratiya” kabi tushunchalarni talaba-yoshlarga mazmuni, maqsad va vazifalarini anglagan holda foydalanish madaniyatini shakllantiradi.</p>						
II. Asosiy nazariy qism							
<p>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular (ma’ruza) kiradi:</p> <p>1-mavzu. Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyusiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati.</p> <p>Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchasi evolyutsiyasi va dialektikasi. Muloqot va ma’lumot tushunchasining uzviylik va o‘ziga xosligi. Muloqot va ma’lumotning inson hayotidagi o‘rni, ahamiyati va ma’naviy ehtiyojga aylanishi. Media savodxonlik va axborot madaniyati kommunikativ voqeа sifatida va foydalanish usullari. Xat (maktub) ilk axborot almashuv shakli. Pochta, gazeta, telegraf, jurnal va radio axborot manbai sifatida. Televideniya-davr taqozosi sifatida.</p>							

2-mavzu: Axborotni jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati.

Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, mazmun-mohiyati. Xabar, ma'lumot, bitim va shartnomalar. Ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallar. Axborot-inson hayotining ajralmas qismi. Axborot turlari: ijtimoiy va madaniy turmush, jamiyat siyosiy va iqtisodiy qarashlar bilan uzviyligi. San'at, sport va ma'naviy hayot. Axborotning ta'lim va tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati. Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendensiyalari.

3-mavzu: Axborotni jamiyatda tutgan o'rni va ahamiyati.

Medialarning qadriyatlarga tayanishi va ularning tarbiyaviy ahamiyati. Axborotlarning shaxs his-tuyg'ulariga ta'sir muammolari. Ommaviy axborot vositalarining ijtimoiy ta'sir kuchi, Media qadriyatlar. Axborotning ijtimoiy qatlamga ta'siri. Yangi O'zbekistonda fuqarolarning faollashuvida media va axborotning ahamiyati. Ommaviy axborot vositalarida axborot, ma'lumot (matn)lar bilan ishslash va uning ommaga ta'sirini belgilash. Axborotdaadolat va xolislik prinsiplari.

4-mavzu: Jahon media va axborot makonida raqobat muhiti.

Bosma va ommaviy axborot vositalari: Gazeta, jurnal, radio, televiedenie va internet jurnalistikasida o'zaro raqobat muhiti. Aholining axborotga bo'lgan ehtiyoji. Davlat va xususiy bosma nashr va ommaviy axborot vositalarida raqobat muhiti. Matbuotda so'z va axborot olish erkinligi. Matbuot va ommaviy nashrlarda raqobat. Bloger va vaynerda kasbiy etiket. Axborotning daromad manbayiga aylanishi. Axborotning ison ongiga ta'sir muammolari. Kasb etikasi.

5-mavzu: Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media makondagi o'rni.

Bosma nashr: "The Times", "New Times", "Bloomberg", "Sabah". Radio: "Exa Moskva", "TRT" va "Amerika ovozi" teleradiokompaniyalarining axborotlari tahlili. T.Livettning "Garverd biznes rev'yu" maqolasi haqida. Kenichi Omasning "Chegarasiz dunyo" asarining globallashuvdagi ahamiyati. "Olomoncha madaniyat" oqibatlari. Hozirgi globallashuv integratsiyalashuv, axborotlashuv va ilmiy-texnik taraqqiyot oqibatining inson omiliga ta'siri muammolari. Jahon axborot tarmog'ida fitna va ma'naviy xurujlar va ularning oqibatlari.

6-mavzu: Media maydon tuzilishi va ta'siri.

Axborotlashgan jamiyat va media maydon tushunchasi. Uzviyligi va uning o'ziga xususiyatlari. Media maydonning shaxs va jamiyatdagi o'rni va ahamiyati. Media axborot yaratish va uning tahlili. Media axborot (matn) tahlili va uni baholash madaniyati. Media madaniyat. Media ta'lim. Global tarmoqlarning zamonaviy iskanjalari. Internet tarmoqlariniyang vujudga kelishi va maqsadi: "Odnoklassniki", "Telegram" "Facebook", "Instagram", "Whatsapp" "Tik tok", "Youtube", "Twitter", "go.glf.com", "Linkedn".

7-mavzu: Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar.

Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati. Ijtimoiy tarmoqning axborot maydoniga aylanishi. An'anaviy OAV o'rnini ijtimoiy tarmoqlar egallashi. Ijtimoiy tarmoqlarning jozibadorligi va yoshlarni o'ziga jalb etishi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar. Video, musiqa va manbalar. Oila kushandas. Ijtimoiy tarmoqlarning

ommalashuvi. “Odnoklassniki”, “Telegram” “Facebook”, “Instagram”, “Whatsapp” “Tik tok”, “Youtube”, “Twitter”, “go-gulf.com”, “LinkedIn”.

8-mavzu: Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar.

Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta’sir muammolari. Ijtimoiy tarmoq - bu ommaviy madaniyatning omili sifatida. Ijtimoiy tarmoqlarda madaniy transformatsiya, integratsiya va diffuziya. Ijtimoiy tarmoqda axborot almashinuvi prinsipini aniqlash va tizimli tadqiq va tahlil etish. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatga funksional bog‘liqligi.

9-mavzu: Media maydon da axborot tarqatish madaniyati.

Axborot maydonida axloq va shaxs tushunchasi. Axborotning ong va tafakkurga ruhiy ta’sir muammolari. Internet, virtual va vizual olamning shaxsga ta’siri. “Kazino”, “sport o‘yinlari”. Vizual olamning ommaviyligi va jozibadorligi. Media maydonda vizual jozibadorlikning shaxs tasavvurida namoyon bo‘lishi. Vizual olamda muloqot, sevgi va nikoh munosabatlari. Vizual kontentning ommaviyligi va ta’sir muammolari. Axborot almashinuvining mexanizmlari va ilmiy nazariy asoslari. Axborot almashinuvining madaniy-sotsial holati va ahamiyati.

10-mavzu: Shaxsga yo‘naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar.

Axborotning shaxs va jamiyatga yo‘naltirilganligi. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo‘naltirilgan pisixologik, diniy va madaniy tahdidlar. Milliy nizo turlari va tahdidlar. Axborot tizimida “falsifikatsiya metodi” (feyk)dan foydalanish. Axborot manbalaridan foydalanishda shaxs madaniyatini takomili. Ko‘pmillatli jamiyatda tolerantlik, bag‘rikenglik g‘oyalaringa tajovuz va tahdidlar. Hozirgi dunyoda terrorizm, ekstremizm va diniy tahdidlar: moslashuv va mafkuraviy kurash. Axborot almashinuvining reguliyativ funksiyasi, xavf-xatar va tahdidlar. Axborot almashinuvida mikro, mezo, makro darajalari. Globallashuv sharoitida tinchlik va barqarorlikka tahdid soluvchi: milliy, mafkuraviy va axborot xurujlarini bartaraf etishning zamonaviy mexanizm va texnologiyalari.

11-mavzu: Axborot xavfsizligini ta’minlashning g‘oyaviy-nazariy asoslari.

Yoshlarda media maydon, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish. Bu vositalarga qaramlik emas balki, yoshlarda to‘g‘ri foydalanish tushunchasini shakllantirish. Axborot manbalariga qiyosiy va tanqidiy yondashuv. Inkorni inkor qonunining media savodxonlik va axborot madaniyatida namoyon bo‘lishi. Internet tarmog‘idagi milliy segmentlar va axborot xavfsizligining nazariy-metodologik asoslari. Ta’limda media savodxonlik va axborot madaniyatini qo‘llashning metodlari. Axborot xurujlari: etnik, irqiy, milliy, mintaqaviy, diniy, siyosiy va iqtisodiy jihatdan kamsitishni targ‘ib etuvchi manbalarga nisbatan mantiqiy, psixologik hamda huquqiy yondashish.

12-mavzu: O‘zbekistoida axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari.

Axborot almashinuvining milliy - mental, yosh, jins va hayoiy tajriba hamda ijtimoiy xususiyatlari. Yoshlar o‘rtasida huquqbazarlik, ma’naviy va ruhiy zo‘ravonlik. Milliy qonunchilikda axborot xurujlari. Davlat siri, qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlar. Fuqarolarning sha’ni, qadr-qimmati va obro‘siga nisbatan

dahl qilish. Giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalarni targ‘ib qilish. Prezident asarlari, farmonlari, hukumat qarorlari va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida media savodxonligi va axborot madaniyatini himoyalanishi. Xalqaro jurnallarda axboriy himoya. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyasi. “Terrorizm, ekstremizm va separatizmga qarshi” kurash bo‘yicha ShXT konsepsiysi.

13- mavzu. Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri.

Kompyuterga tobelikning to‘rt bosqichi: moslashish, odatlanish, shaxsiy omillarga ta’siri, inson hayotining ajralmas bo‘lagi sifatida. Internet va kompyuter o‘yinlarining paydo bo‘lishi. Virtual tanishuvlar. Virtual o‘yinlar - yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta’siri. Virtual olam va manipulyatsiya.

14- mavzu. Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri.

Kompyuter o‘yinlarining ruhiy va jismoniy xatarlari. Virtual olamda o‘zlikni namoyon qilish - “qahramon”lik. Zo‘ravonlik, faxsh va shafqatsizlikka undovchi o‘yinlar: “Pubj”, “Minecraft”, “gta”, “counter-strike”, “EverQuest”, “Manhunt” “Internet orqali bog‘lanishning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri” bo‘yicha sotsial so‘rovi.

15-mavzu: Media maydon va internet imkoniyatlari.

Hozirgi kunda axborot texnologiyalari taraqqiyoti. Ijtimoiy tarmoqlar. Forumlar. Blogerlar. Vikilar. Elektron tijorat, auksion, magazin va to‘lovlar. Yangiliklar guruhi (Usenet). Internet-radio, televidenie (IPTV) va telefon (IP). Veb-chatlar (IRC) va reklama.

III. Seminar mashg‘ulotlari bo‘yicha ko‘rsatma va tavsiyalar:

Seminar mashg‘ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-mavzu. Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyusiyasi hamda jamiyatdagi ahamiyati. Media savodxonlik va axborot madaniyati evolyutsiyasi va dialektikasi.

2-mavzu. Axborotni jamiyatda tutgan o‘rni va ahamiyati. Axborotlashgan jamiyat tushunchasi, mazmun-mohiyati. Ommaviy axborot vositalari: gazeta va jurnallar. Axborot turlari.

3-mavzu. Axborotning ta’lim va tarbiya jarayonidagi o‘rni va ahamiyati. Axborot oqimi va axborot madaniyatining shakllanish tendensiyalari.

4-mavzu. Juhon media va axborot makonida raqobat muhiti. Bosma va ommaviy axborot vositalari: Gazeta, jurnal, radio, televidenie va internet jurnalistikasida o‘zar raqobat muhiti.

5- mavzu. Xorijiy ommaviy axborot vositalarining media makondagi o‘rni. Bosma nashr: “The Times”, “New Times”, “Bloomberg”, “Sabah”, Radio: “Exa Moskvy”, “TRT” va “Amerika ovozi” teleradiokompaniyalarining axborotlari tahlili.

6-mavzu. Media maydon tuzilishi va ta’siri. Axborotlashgan jamiyat va media maydon tushunchasi. Uzviyligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari. Media axborot (matn) tahlili va uni baholash madaniyati.

7-mavzu. Ijtimoiy tarmoqlarda axborot xurujlari va tahdidlar. Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati. Ijtimoiy tarmoqning axborot maydoniga aylanishi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar. Video, musiqa va manbalar. Oila kushandas.

8-mavzu. Ijtimoiy tarmoqlarning jamiyat hayotiga ta'sir muammolari. Ijtimoiy tarmoq – bu “ommaviy madaniyat”ning omili sifatida. Ijtimoiy tarmoqlarda madaniy transformatsiya, integratsiya va diffuziya.

9-mavzu. Media maydon da axborot tarqatish madaniyati. Axborot maydonida axloq va shaxs tushunchasi. Internet, virtual va vizual olamning shaxsga ta'siri. “Kazino”, “sport o‘yinlari”, “karta o‘yini”.

10-mavzu. Shaxsga yo‘naltirilgan axborot: psixologik, diniy va madaniy tahdidlar. Etnik, milliy, va mintaqaviy muammolarga yo‘naltirilgan psixologik, diniy va madaniy tahdidlar. Axborot tizimida “falsifikatsiya metodi” (feyk)dan foydalanish.

11-mavzu. Axborot xavfsizligini ta'minlashning g‘oyaviy-nazariy asoslari. Yoshlarda media maydon, internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish madaniyatini shakllantirish. Axborot manbalariga qiyosiy va tanqidiy yondashuv.

12-mavzu. O‘zbekistonda axborot xavfsizligining ma’naviy va huquqiy asoslari. Axborot almashinuvining milliy-mental, yosh, jins va hayotiy tajriba hamda ijtimoiy xususiyatlari. Yoshlar o‘rtasida huquqbazarlik, ma’naviy va ruhiy zo‘ravonlik. Milliy qonunchilikda axborot xurujlari. Davlat siri, qonun bilan qo‘riqlanadigan sirlar.

13-mavzu. Virtual o‘yinlarning yoshlar ongiga ta’siri. Kompyuterga tobelikning to‘rt bosqichi: moslashish, odatlanish, shaxsiy omillarga ta’siri, inson hayotining ajralmas bo‘lagi sifatida. Internet va kompyuter o‘yinlarining paydo bo‘lishi. Virtual tanishuvlar. Virtual o‘yinlarning – yoshlar tafakkuri va dunyoqarashiga ta’siri.

14-mavzu. Virtual olam va manipulyatsiya. Kompyuter o‘yinlarining ruhiy va jismoniy xatarlari. Virtual olamda o‘zlikni namoyon qilish - “qahramon”lik. Zo‘ravonlik, faxsh va shafqatsizlikka undovchi o‘yinlar: “Pubj”, “Minecraft”, “gta”, “counter- strike”, “EverQuest”, “Manhunt”.

15-mavzu. Media maydon va internet imkoniyatlari. Hozirgi kunda axborot texnologiyalari taraqqiyoti. Ijtimoiy tarmoqlar. Forumlar. Blogerlar. Vikilar. 2. Elektron tijorat, auksion, magazin va to‘lovlar. 3. Yangiliklar guruhi (Usenet). Internet-radio, televidenie (IPTV) va telefon (IP). Veb-chatlar (IRC) va reklama.

Seminar mashg‘ulotlari multimedia qurilmalari, kompyuterlar va kerakli dasturlar bilan ta’milangan kompyuter xonalarida har bir akadem. guruhga alohida o‘tiladi. Mashg‘ulotlar faol va interfaol usullar, ilg‘or pedagogik texnologiyalar yordamida o‘tiladi. Bunda ko‘rgazmali materiallar, video materiallar va axborotlar multimedia qurilmalari vositalaridan foydalaniladi.

IV. Amaliy ko‘nikmalar:

1. Ijtimoiy tarmoq tushunchasi va uning mohiyati.
2. Ijtimoiy tarmoqning axborot maydoniga aylanishi. Ijtimoiy tarmoqlar va messenjerlar. Video, musiqa va manbalar.
3. Axborot manbalariga qiyosiy va tanqidiy yondashuv. Inkorni inkor qonunining media savodxonlik va axborot madaniyatida namoyon bo‘lishi.
4. Shaxsiy kompyuterlarning dasturiy ta’mnoti. Windows operatsion tizimida ishslash asoslari. Windows operatsion sistemasining bazaviy ob’ektlari bilan ishslash.
5. Windows operatsion sistemasi muhitida papka va fayllar bilan ishslash. Windows operatsion sistemasidagi standart va xizmatchi dasturlar.
6. Tibbiyotda ishchi o‘rinlarini avtomatlashtirishda mantli axborotlarni qayta ishslash texnologiyasi. Microsoft Word matn muxarririning keng imkoniyatlaridan foydalanish.
7. Word taxrirlagichida jadval yaratish va formatlash. Jadvalga axborotlar kiritish, formatlash, axborotlarni tartiblash va hisoblash.
8. Sonli ma’lumotlarni qayta ishslash texnologiyasi. Tibbiyot ma’lumotlarini kompyuter yordamida analiz qilish. Microsoft Excel jadval muxarririning keng imkoniyatlaridan foydalanish.
9. Microsoft Excel jadval muxarririda matn, formula, diagramma va gipermurojatlar bilan ishslash
10. MS Power Pointning dasturiy ta’mnoti va uning imkoniyatlari. Prezentatsiya tayyorlash usullari va ularga qo‘yiladigan talablar.
11. Namunaviy prezentatsiya tayyorlash. Prezentatsiyalar bilan ishslash (formatlash, chop etish, namoyish qilish).
12. Tibbiyotda vizualizatsiya. Grafik muxarrirlar va uning imkoniyatlari. Adobe Photoshop dasturidan foydalanish.
13. MS Access dasturida ma’lumotlar bazasini yaratish usullari va qo‘llash doirasi. MS Access dasturida tibbiy-biologik axborotlarni saqlash uchun ma’lumotlar bazasini rejalashtirish va yaratish.
14. MS Access dasturida jadvallar yaratish va uni taxrirlash. MS Access dasturida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar bazasidan kerakli axborotlarni qidiruv va tartiblash vositalari yordamida izlash.
15. Global tarmoqda ishslashni tashkil etish. Tibbiy-biologik axborotlarni mavzular bo‘yicha qidirish uchun veb brauzerlardan foydalanish.
16. Internet tarmog‘ida foydalanuvchilar registratsiyasi. Elektron pochta bilan ishslash. Axborotlarni ilovalar bilan jo‘natish va qabul qilish usullari.
17. Web brauzerlar. Internetda tibbiy ma’lumotlarni qidirish. Qidirish tizimlarini yaratish va uning ahamiyati.
18. Web saytlar yaratishga yo‘naltirilgan dasturiy ta’mnotlar (HTML, Front Page, Word Press).
19. Sahifa strukturasi, dizayn, freymlari, matn, jadval, grafik, video ob’ektlari joylashtirish va animatsiya biriktirish texnologiyasi.
20. Dasturiy ishchi platformalar yordamida Web-sahifalar yaratish.

V. Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta’lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Media savodxonlikni rivojlantirishning yo‘llari.
2. Ed’yuton konsepsiyasi.
3. Post-haqiqat nima?
4. Filmlar va “ommaviy madaniyat”.
5. Televidenie - ko‘ngilochar sanoat sifatida.
6. O‘yinlar - ijtimoiy faoliyat sifatida.
7. Medialarning ijtimoiy mazmuni.
8. Media madaniyat va innovatsion pedagogik texnologiyalar.
9. Ijtimoiy media shakllari.
10. Ijtimoiy mediada tahdid va xavf-xatarlar.
11. Tarmoq odob-axloqi. (Infoetika).
12. Axborot matnlar bilan ishlash va media madaniyat.
13. Axborot nima va uning manbalari.
14. Axborot turlari va ishonchliligi.
15. Media muhitda axloqiy tamoyillar.
16. Media muhitda bola huquqlari.
17. BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi”.
18. Media texnologiyalar kundalik hayotda.
19. Ijtimoiy mediani baholash.
20. Media savodxonlikni qanday oshirish mumkin?
21. Siz nima uchun media savodli bo‘lishingiz kerak?
22. Taqdimot tayyorlash va taqdim etish usul va vositalari.
23. Media makonda axborotni taqdim etish.
24. Kitob apparati bilan ishlash.
25. Texnika madaniyati.
26. Reklamaning ijtimoiy mazmun-mohiyati.
27. Kompyuter o‘yinlari - manqurtlik vositasi.
28. Virtual o‘yinlarning asoratlari.
29. Virtual tutqunlikka qarshi kurash.
30. Kiberterrorizm.

Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- ayrim nazariy mavzularni o‘quv adabiyotlari yordamida mustaqil o‘zlashtirish;
- berilgan mavzular bo‘yicha axborot (referat) tayyorlash;
- berilgan mavzular bo‘yicha prezentsiyalar tayyorlash;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash;
- avtomatlashtirilgan o‘rgatuvchi va nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;


	<ul style="list-style-type: none"> - grafik organayzerlarni mustaqil tuzish va ular yordamida bilimlarni mustahkamlash - ilmiy maqola, anjumanga ma’ruza tayyorlash va h.k. <p>Mustaqil ta’lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo‘yicha umumiyo ko‘rsatma va tavsiyalar:</p> <p>Mediasavodxonlik va axborot madaniyati moduli bo‘yicha mustaqil ish auditoriyadan tashqari o‘tkaziladi. Talabalar tavsiya etilgan mavzulardan esse, referat, prezентatsiyalar va grafik organayzerlarini tayyorlab, o‘qituvchiga darsdan tashqari bo‘lgan vaqtida taqdim etadilar. Taqdim etilayotgan ishda mavzuni atroflicha ta’rif berilib, asosiy urg‘u shu mavzuni tibbiyotdagi ahamiyatiga qaratilgan bo‘lishi kerak. Bajarilgan ish dolzarbliji, yangi ilmiy ma’lumotlar saqlagan, animatsiya va videofilmlar bilan boyitilgan bo‘lishi kerak.</p>
3.	<p>VI. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</p> <p>Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba:</p> <ul style="list-style-type: none"> • Fanni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun raqamli texnologiyaning didaktik imkoniyatlari, media axborot va matnlar bilan ishlash texnologiyasiga doir global jarayonlarga analitik va mantiqiy tafakkurning roli haqida bilimga ega bo‘lishi; • Raqamli media matn va tasvir bilan ishlash, media ta’limni tashkil etishda ta’limiy mazmundagi infografika, broadcast, caption videoaapim yaratishga oid dasturiy ta’minotlar, media matnlarni tahlili, analitik va sintetik fikrlash asosida, mushohadaviy tafakkurga asoslangan holda mustaqil qarorlar qabul qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak; • Media savodxonlik va axborot madaniyati tushunchalarini kasbiy va axboriy faoliyatni amalga oshirishning universal vositasi sifatida foydalanishda konstruktiv, mantiqiy ifoda etish malakalariga ega bo‘lishi lozim.
4.	<p>VII. Ta’lim texnologiyalari va metodlari</p> <p>Amaliy darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida prezентatsion va elektron-didaktik texnologiyalardan foydalaniladi.</p> <p>Jumladan,</p> <ul style="list-style-type: none"> • amaliy mashg‘ulotlarida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Bumerang”, “Birgalikda o‘qiymiz”, “Sinkveyn”; • interfaol keys-stadilar; • mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar; • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihiolar; • jamoa bo‘lib ishlash va himoya qilish uchun loyihiolar.

	VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:
5.	<p>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtrish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va nazorat uchun berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, oraliq va yakuniy nazorat turlari bo‘yicha yozma yoki og‘zaki va test ishni muvoffaqiyatli topshirish.</p>
	<p style="text-align: center;">Asosiy adabiyotlar</p> <p>1. Ya.Mamatova, S.Sulaymanova. O‘zbekiston mediata’lim taraqqiyot yo‘lida. O‘quv qo‘llanma. Extremum-press, 2015-94.6</p> <p>2. Yahyo, Muxammad Amin. Internetdagi tahdidlardan himoya. Yordamchi o‘quv qo‘llanma. Movaraunnahr, 2016.-672 b</p> <p>3. А.В. Федоров. Медиаобразования и медиаграмотность. Учебное пособие. М. 2018 г.</p> <p>4. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O‘quv-amaliy qo‘llanma. - Extremum-press, 2017-142.6</p>
6.	<p style="text-align: center;">Qo‘srimcha adabiyotlar:</p> <p>1. Ахметова Л.С. Медиаобразования и медиаграмотность: теория, методология, практика. Учебное пособие. КазГУ. 2016 г</p> <p>2. Amirov D.M. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari izohli lug‘ati. 2010.</p> <p>3. Burxanov X. M. Internet xavfsizligini ta’minlashda milliy segment faoliyatining sotsiologik jihatlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2012.</p> <p>4. Raximova Sh.A. Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinushi madaniyati. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.</p> <p>5. Shermuxamedova A.U. O‘zbekistonda ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi tendensiyalari va xususiyatlari. Diss.Avtoreferag T.: 2021.</p> <p>6. Судич Ю.Б., Проказин В.В. Рол социал сетей в жизнь молодежи. М. 2019.</p> <p>7. Matibaev T. Matibaeva R. Jaholat xuruji. - Toshkent: Akademiya, 2013.</p> <p>8. Tolipov A.A. Yoshlar orasida jiroyatchilikning oldiii olishning ijtimoiy mexanizmlari. Diss.Avtoreferat. T.: 2021.</p> <p style="text-align: center;">O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni</p> <p>1. O‘zbekiston Respublikaeini yanada rivojlantirish bo‘yicha \harakatlar strategiyasi to‘g‘risida. (O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjalari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda)</p> <p>2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 Vil 13 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruviga raqamli iqtisodiyot, elektron hukumat hamda axborot tizimlarini joriy etish bo‘yish qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi</p>

	<p>3. PF-5598-son Farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotaari milliy bazasi, 13.12.2018 y,</p> <p>4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF - 6108- son farmoni.</p>
	<p>Axborot manbalari:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. http://www.edu.uz-O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi sayti. 2. http://www.uzedu.uz - O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi sayti. 3. http://www.gov.uz- O'zbekiston Respublikasi hukumati portalı. 4. Prezident.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidentning rasmiy veb-sayti 5. www.press-service.uz. - Prezident matbuot xizmati 6. www.Lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'hmotlari miliy bazasi. 7. www.ziyonet.uz - O'zbekiston Respublikasi ta'lim portalı 8. www.aza.uz - O'zbekiston Miiliy axborol agentligi (O'zA) 9. www.natlib.uz - Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi 10. www.webofscience.com - Xalqaro iimiy maqolalar platformasi 11. www.scopus.com - Xalqaro ilmiy maqolalar platformasi 12. www.elibrary.ru - Rossiya ilmiy maqolalari indeksi 13. www.pedagog.uz 14. "Xalq so'zi" gazetasi -www.info XS.Uz. 15. "Turkiston" gazetasi - www.turkiston.sarkor.uz.
7.	<p>Fan/Modul uchun ma'sullar:</p> <p>M.I.Bazarbaev, TDTU, Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasи mudiri, f-m.f.n., dotsent</p> <p>E.Ya.Ermetov, TDTU, Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasи kafedrasи kaTDTU o'qituvchisi</p> <p>B.O.Babajanov, TDTU, Biotibbiyot muhandisligi, informatika va biofizika kafedrasи assistenti</p>
8.	<p>Taqrizchilar:</p> <p>Ichki taqrizchi:</p> <p>I.Mullajonov - TDTU, informatika va biofizika kafedrasи dotsenti, f-m.f.n.</p> <p>Tashqi taqrizchi:</p> <p>D.A.Qarshiev - Toshkent Pedatriya tibbiyot instituti, tibbiy biologik fizika, informatika va axborot texnologiyalari kafedrasи mudiri, f.m.f.n., dotsent.</p>

	Fanning o'quv dasturi Toshkent davlat tibbiyot universitetining 09.08.2025-yildagi 167-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.
9.	O'quv-uslubiy departament boshlig'i Fakulteti dekani

F.X. Azizova



F.I.Salomova